KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

ALISHER NAVOIY NASRIDA OSHIQ OBRAZINING HAYOTIY ASOSLARI VA BADIIY TALQINI

Elnura Qurbonova,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
DOI: https://doi.org/10.54613/j8w2hj49

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 6-noyabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 9-noyabr 2026-yil
Jurnal soni: 20-A
Maqola raqami: 3

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Alisher Navoiy, muallif bayoni, badiiy g‘oya, ishq, oshiq, orif, rind, javonmard, irfon, ma’rifat, poetik talqin

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada badiiy asarda mavzu va g‘oyaning shakllanishi, muallif bayonining g‘oyaviy-badiiy vazifasi Alisher Navoiyning nasriy merosi asosida tadqiq etilgan. Badiiy ijodda mavzu tanlash, hayotiy materialni saralash va obraz yaratish jarayonining muallif dunyoqarashi, ijodiy niyati hamda asarning janriy xususiyatlari bilan uzviy aloqadorligi yoritilgan. Navoiy lirik, epik va nasriy asarlarida ishq mavzusining mushtarak g‘oyaviy asosga egaligi, badiiy ifodasi va muallif bayonidagi o‘ziga xosliklar adabiy tur va janr imkoniyatlari bilan belgilanishi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarida mutafakkirning ishq va oshiqlik bilan bog‘liq qarashlari o‘zaro qiyoslangan. Xususan, manoqib va holotlarda oshiq obrazining hayotiy asoslari, real tarixiy shaxslarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi orqali komil oshiqqa xos fazilatlarning ifodalanishi, muallifning shaxsiy munosabati va badiiy bahosining obraz mohiyatini ochishdagi o‘rni tahlil etilgan. Navoiy tasavvuridagi komil oshiq qiyofasi faqat badiiy tahayyul mahsuli bo‘lmay, shoirning hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribasi va ruhiy yaqinlik rishtalari bilan ham shakllangani ko‘rsatib berilgan. Shoir nasriy asarlarida tarixiy shaxslarning hayot tarzi, ruhiy olami va axloqiy fazilatlari vositasida ishqning inson kamolotidagi o‘rni, oshiqlikning ma’rifiy-irfoniy mohiyati hamda muallifning oshiq obrazi haqidagi qarashlar tizimi ifodalangani yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 6 November 2026
Approved: 9 November 2026
Volume: 20-A
Paper number: 3

KEYWORDS

Alisher Navoi, authorial narration, literary idea, ʿishq, ʿāshiq, ʿārif, rind, javānmard, ʿirfān, maʿrifat, poetic interpretation.

ANNOTATION

The article examines the formation of themes and ideas in literary works and the ideological and artistic function of authorial narration based on Alisher Navoi’s prose heritage. It explores the close relationship between the selection of themes, the choice of material drawn from real life, and the process of character creation, on the one hand, and the author’s worldview, creative intentions, and the genre-specific characteristics of the work, on the other. A comparative analysis demonstrates that although the theme of love in Navoi’s lyrical, epic, and prose works shares a common ideological foundation, its artistic expression and the distinctive features of authorial narration are determined by the characteristics and expressive possibilities of different literary forms and genres. The article also compares the thinker’s views on love and being a lover as reflected in Muhokamat ul-lug‘atayn, Khamsat ul-mutahayyirin, Holoti Sayyid Hasan Ardasher, and Holoti Pahlavon Muhammad. In particular, it analyzes the real-life foundations of the image of the lover in hagiographical and biographical narratives, the representation of the qualities of the ideal lover through the spiritual and moral characteristics of historical figures, and the role of the author’s personal attitude and artistic evaluation in revealing the essence of this image. The study demonstrates that Navoi’s conception of the ideal lover was not merely a product of artistic imagination but was also shaped by the poet’s observations of real life, personal experiences, and bonds of spiritual closeness. Furthermore, the article draws scholarly conclusions regarding the ways in which the lifestyles, inner worlds, and moral virtues of historical figures in Navoi’s prose works convey the role of love in human spiritual perfection, the intellectual and mystical essence of being a lover, and the author’s system of views on the image of the lover.

Kirish

Badiiy asar mavzusi ijodkor e’tiboridagi dolzarb masala va ijodiy niyat asosida shakllanadi. Muallif mavzuni yoritishda obrazlar, kechinma va tafsilotlarni muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadga bo‘ysundiradi. D.Quronov ta’kidlaganidek, ijodkorni o‘ylatgan, tashvishga solgan muammo asar mavzusini belgilaydi, voqelik esa badiiy asarda muallifning g‘oyaviy-hissiy bahosi bilan qayta idrok etiladi [16, 106-107. Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, avvalo, olam va odam haqidagi tasavvurlari, ruhiy kechinma va holatlardan ta’sirlanadi. Bu ijod jarayonida muallif tafakkurida qayta ishlanadi, saralanadi, umumlashtiriladi. Darhaqiqat, Navoiy nasriy asarlaridagi mavzular qamrovi muallifning hayotiy kuzatishlari, axloqiy qarashlari, bilim va tajribasi bilan uzviy holda shakllangan. Ishq mavzusi ham har bir asarning janr tabiati va g‘oyaviy maqsadiga muvofiq turli yo‘sinda badiiy talqin etilgan. B.Valixo‘jayev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Alisher Navoiyning nasriy asarlari mavzu, janr va badiiyati jihatidan rang-barangdir. Bu asarlar qanday mavzuga bag‘ishlanganliklaridan yoki qaysi janrga

mansubliklaridan qat'iy nazar o'sha davrdagi nasrning ilmiy-badiiy, estetik talab va mezonlariga to'la-to'kis muvofiq bo'lib, Navoiyga qadar bo'lgan turkiy-o'zbek nasrini har jihatdan boyitdi" [10, 199]. Alisher Navoiy nasriy merosi janriy tarkibining turfaligi, mavzular qamrovining kengligi va muallif tafakkurining teranligi bilan turkiy adabiyot taraqqiyotida alohida mavqega ega.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotshunos X.Umurov yozuvchi obraz yaratar ekan, asar g'oyasiga aloqador jihatlarni tanlab, g'oyaga xizmat qilmaydigan tafsilotlardan voz kechishini ta'kidlaydi [14,36]. Darhaqiqat, Navoiy nasriy asarlarida ham shaxs, voqea yoki peyzaj tasviri muallifning axloqiy-irfoniy maqsadiga xizmat qiladi. Shoir oshiq obrazini yaratishda uning kundalik hayot tashvishlarini emas, riyozat va kamoloti, ishq va sadoqati, ma'rifatga oshnoligi hamda Haqqa yaqinligi bilan bog'liq jihatlarini tasvirlashga e'tibor qaratadi. Zero, "ijodiy ong hayotiy voqealarni, turmush hodisalarini material sifatida olar ekan, ularni sidirg'a, yaxlit olmaydi, balki tanlab oladi. Materialning qay tarzda tanlab olinishi esa badiiy tafakkur tipiga bog'liq va yozuvchining ijodiy metodini ham badiiy tafakkur tipi belgilaydi" [15, 63].

Insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiy etar ekan, oshiq obrazi muayyan davrning axloqiy mezonlari, diniy-irfoniy qarashlari hamda adabiy tasavvuri bilan uyg'un holda talqin etib kelingan. Har bir ijodkor ishq va oshiq obrazini o'zining dunyoqarashi, badiiy niyati, til imkoniyatlari hamda hayotiy tajribasi asosida turli usullarda tasvirlashga uringan. Tadqiqotimiz markazida turgan mavzu muayyan janr bilan chegaralanmay, mutafakkirning lirik, epik va nasriy asarlarida izchil rivojlantirilgan. Har bir janr imkoniyatidan kelib chiqib, yangi qirralar bilan boyitilgan. Shu bois Navoiyning nasriy asarlarini lirik hamda epik merosi bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etish masalaning mohiyatini to'laroq ochishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Mavzu va g'oya ifodasida adabiy tur va janr muhim omil sanaladi. Shoir ijodida ham ishq mavzusi va oshiq obrazi asarning janriy xususiyati, g'oyaviy yo'nalishi va muallif bayonining xarakteriga ko'ra turlicha talqin etiladi. Bir asarda ishq irfoniy-axloqiy tushuncha sifatida sharhlansa, boshqasida real shaxslarning hayot tarzi va amallari, ruhiy maqomlari, yana birida esa ijod ahli va uning she'riyati haqidagi muallif bahosi orqali ochiladi. Bunda mavzuni yoritish usuli va muallif bayonining vazifasi janrga muvofiq o'zgaradi.

Yo.Is'hoqov lirik va epik asarlarning o'ziga xosligini qiyoslar ekan, lirik asar asosida kechinma, epik asarda esa voqea yotishini qayd etadi [12, 362]. H.Jo'rayev fikrlari ham mazkur e'tirofga uyg'un. Olimning fikricha, lirik asarda voqeadan ko'ra tuyg'uning yetakchiligi qahramon ruhiyati, holat va kayfiyatining turlicha namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi [11, 45]. Darhaqiqat, lirik matnda oshiqning, avvalo, qalb kechinmalari, "hol" sirlari tasviri ustunlik qiladi. Shoir bu xususda "Muhokamat ul-lug'atayn"da "she'rning bino va madori ishqqa evrulur" deya ta'kidlar ekan, oshiqqa xos belgi – yig'iga alohida e'tibor qaratib shunday yozadi: *"Oshiqliqda yig'lamoqdin kulliyroq va doimiyroq amr yo'qtur"* [8, 517]. Turkiy tilda "yig'lamsinmoq", "ingramoq", "singramoq", "siqtamoq", "o'kurmak", "inchkirmak" so'zlari oshiqdagi dard-u g'amning turli darajalarini ifodalagan. Navoiy bunga ahamiyat berib, "ingramoq" va "singramoq"ni "dard bila yashurun ohista yig'lamoq", "siqtamoq"ni "yig'lamoqda mubolag'a", "o'kurmak"ni baland ovoz va kuchli iztirob bilan yig'lash, "inchkirmak"ni esa "inchka un bila yig'lamoq" tarzida izohlaydi [8, 519]

Tadqiqot metodologiyasi

Ulug' shoirning lirik asarlarida oshiq obrazi eng rangin poetik tasvirlar, ramzlar va murakkab ruhiy holatlar vositasida yoritilib, oshiqning "ajib", "sa'b holi", "g'arib xayollari" va "ma'shuqaning mufrit jamoli"dan atroflicha bahs yuritiladi. Navoiy turkiy va forsiy tilning ifoda imkoniyatlarini qiyoslar ekan, ishq poetikasiga xos tushuncha va tasvirlardan ham muhim material sifatida foydalanadi. Jumladan, oshiqning mahbubaga niyoz bilan termulishini alohida qayd etib: "Yana ishq tariqida mahbub nazzorasi muyassar bo'lsa, oshiqning niyoz yuzidin telmurmagi asru munosib ishdur va bu lafz alarda yo'qtur", deydi. Shuningdek, "yasanmoq", "bezanmak" hamda ma'shuqa husni tasviriga xos "qabog'", "meng" singari turkiy so'zlarning ma'no va ifoda imkoniyatlarini qayd etadi [8, 519].

Ulug' mutafakkir ijodida *"husn-u jamolda dilpazir, fazl-u kamolda benazir"* [3, 606]. oshiq obrazini yaratishga intilgan. Shoir lirik merosi va dostonlarida tasavvuridagi oshiqning badiiy timsolini gavdalantirgan bo'lsa, nasriy asarlarida o'zi e'zozlagan, hayot tarzi va amallaridan ta'sirlangan ayrim zamondoshlari qiyofasida oshiqlikka xos fazilatlarning komil va solim namunasini tasvirlagan. Xususan, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadning hayot tarzi, ma'rifiy kamoli, axloqiy fazilatlari va ruhiy dunyosi shoirning oshiq haqidagi tasavvurlari faqat badiiy tahayyul mahsuli emas, balki muallifning ijodiy qiyofasi, dunyoqarashi, inson kamoloti haqidagi qarashlari bilan ham bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi.

Shu jihatdan "Holot"lar alohida ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkir qayd etganidek, "Tengri do'stlarining hikoyati va alar axloqining rivoyati afsonaidurkim, uyug'on ko'ngulni uyg'otur va taronayedurkim, xiralig'idin qotgan ko'zni yig'latur..." [4, 510]. Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad"da uzoq o'tmishda yashab, afsonaga aylangan shaxslarni emas, balki ishq va irfon yo'lida ildamlab, Haq mushohadasiga berilgan, shoir kamolotiga ruhiy ta'siri yetgan, suhbatidan bahramand bo'lgan, fayz-u barokatidan quvvat olgan zamondoshlarini tasvirlaydi. Mazkur asarlar Navoiy tasavvuridagi oshiq obrazining hayotiy tajassumi sifatida qimmatlidir. Navoiy Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad siymolaridagi bir qator fazilat va xislatlarni ularning hayotiga oid lavhalar, voqealar hamda hikoyatlar vositasida ochib beradi. Shu tariqa mutafakkir oshiq obrazining ma'naviy qiyofasini hayotiy chizgilar bilan boyitib, unga aniqlik va ishonchlilik baxsh etadi.

Natijalar

Navoiy ijodining ravnaqida Jomiyning ta'siri, ma'naviy dastagi baland bo'lib, shoir she'riy, nasriy asarlarida ul zotni hurmat va ehtirom bilan eslaydi. Ikki buyuk shaxsiyat munosabati nafaqat ustoz-shogird, balki ijodiy hamfikr, maslahatchi, sirdosh, hammaslak, ruhiy yaqinlik asosida shakllangan. Chunonchi, "Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun tariqatda – pir, adabiyotda – ustoz, hayotda – do'st maqomidagi ulug' inson edi" [13, 99]. Navoiy "Xamsa" dostonlarida ham Jomiy madhiga maxsus boblar ajratgan. Har bir dostonning umumiy g'oyaviy yo'nalishi, syujetiga mos holda Jomiy siymosining muayyan bir qirrasini yoritgan. Jumladan, "Hayrat ul-abror"da Jomiyni "qutbi tariqat", "koshifi asrori haqiqat", "haqoyiq duri ganjinasi" sifatida ulug'lab, ilm-u hikmat, irfon va so'z kamolining yuksak timsoli sifatida e'tirof etadi. Ustozi huzuridagi maqomini *"Lek manga ollida ajzu niyoz / Borcha ulusdin beribon imtiyoz"*, deya ifodalaydi. "Farhod va Shirin" dostonida ishq, ma'rifat bilan kamolga yetaklaydigan rahnomo, vahdat mayidan mast, fano maqomiga yetgan oshiq-orif sifatida qalamga olib: *"Bo'lub zohir fano timsoli andin / Tutub olamni olam xoli andin"*, deya ehtirom ko'rsatadi. Shuningdek, "Layli va Majnun" dostonida Jomiy suluk, vasl va valoyat ahli, ishq siriga yetgan Haq oshig'i, "Sab'ayi sayyor"da dunyo havasidan ogoh, aql-u irfon bilan borliq mohiyatini anglaydigan orif, "Saddi Iskandariy"da esa so'z saltanati sohibi, jonbaxsh kalom egasi sifatida ardoqlanadi. Jomiy ham o'z navbatida Navoiyning tengsiz iste'dodi, ijodiy qudrati va adabiy mavqeini asarlarida e'tirof etib, sha'niga yuksak baho bergan.

"Xamsat ul-mitahayyirin" memuar-biografik xarakterdagi asar bo'lsa-da, mohiyatiga ko'ra, muallifning uztozi qarshisidagi hayrati, yetuk zotga bog'langan muhib ko'ngilning ehtiromi, muridga xos sadoqat va muhabbati aks etadi. Navoiy risolaning asosini *"ul sipehri izzu iqbol bila*

bu xokiyvashi furumoya va ul mehri avji kamol bila bu zarrai kamsarmoya orasida o‘tgan holot” [2, 736] ga qurishini ta’kidlashi ham bejiz emas. Asarda muhib-mahbub, murid-murshid, ustoz-shogird, suhbatdosh va holdosh munosabati ifodalangan. Navoiy Jomiy siymosida komil fazilatlar egasini, ko‘ngli sahv-u g‘aflatdan mujarrad sohibi dil va ruhiy rahnamoni ko‘radi.

Asarda Navoiy o‘zini kamtarlik bilan “nafs” va “ujb” domida qolgan ojiz banda, “faqir”, “xoksor”, “parishon ro‘zgor” kabi ifodalar bilan tasvirlaydi. Jomiyni esa “valiylar peshvosi”, “qutbi tariqat”, “shayx ul-islom”, “olimi rumuz”, “kashifi asrori rabboniy”, “haqiqat konining gavhari”, “ma’rifat dengizining duri”,, “millat va din nuri”, “mehri avji kamol” , “sohibi karomat” kabi yuksak maqom va sifatlar bilan ulug‘laydi. Asarning “mutahayyirin” – hayratlanganlar, deya nomlanishi ham e’tiborga molik. Bu tasvir yo‘sini mumtoz she’riyatdagi oshiq va ma’shuq munosabati (oshiq o‘zini ojiz, mahbubni yuksak maqom egasi deb bilishi)ni yodga soladi. “Xamsat ul-mutahayyirin”da bu holat Jomiy shaxsiga bo‘lgan ehtirom, muridga xos sidq-u sadoqat ruhida aks etgan.

“Xamsat ul-mutahayyirin”da Navoiy Jomiy siymosini tasviflar ekan, zohir va botin ilmlaridagi kamoloti, she’riyat va nazmga moyilligi, tasavvuf ilmining nozik masalalarini mukammal idrok etishi va sodda uslubda bayon qila olishi, fitratidagi tavoze’, darveshlik, fanovashlik, qalandarlik kabi qator fazilatlarini alohida tilga oladi. Jumladan, Jomiyning bolalikdan favqulodda zakovat sohibi ekaniga e’tibor qaratib, shunday qayd etadi: “alar to‘rt yo besh yoshlarida emdi maktabg‘a borur vaqtlari emish, hazrati Mavlono (Faxriddin Luristoniy) alarni o‘z qoshlarida o‘lturtub, barmoq ishorati bila havog‘a mashhur otlarni: “Umar” yo “Ali”dek bitir ermish va alar taammul bila o‘qur ermishlar va hazrati Mavlono alarning tufuliyatda bu nav’ zehnu zakosidin mutabassim, balki mutaajjib bo‘lur ermishlar” [2, 738].

Tasavvuf ta’limotida ilm-u ma’rifat ilohiy haqiqatlarni anglash, Haq sirlariga oshno bo‘lish, borliqda ilohiy tajallini mushohada etishning muhim vositasi sanalgani ma’lum. Shu bois ishq ahli ayni vaqtda zohir va botin ilmida komil oriflar bo‘lishgan. Navoiy Jomiy siymosini ayni shunday ilm va irfon sohibi sifatida tasvirlab, uning zohiriy ilmlarda “davrning ulamo-yu fuzalosig‘a foiq bo‘lub”, botin kamolotida esa “biyik marotib hosil qilib” yuksak maqomlarga yetganini alohida ulug‘laydi.

Ta’kidlash joizki, mutafakkir ijodining barcha namunalarida oshiqni ilm va hikmatdan ayri holda tasvirlamaydi. Shoir dostonlaridagi aksariyat qahramonlarning aql-u zakovati, ilm-u marifati, borliq olam sirlarini bilish yo‘lidagi tinimsiz harakati, sohibi irfonligi ishq manzillarida sa’y etishda muhim vosita bo‘lgan. Ulug‘ mutafakkir “Lison ut-tayr” dostonida buni shunday ifodalab: “Ma’rifatda yorab ul yo‘lkim ango / Solikekim kirsa yetkurgay sango”, deya qayd etgan.

Diqqat bilan kuzatilsa, mazkur fazilatlar Navoiy tasavvuridagi komil oshiqning ma’naviy qiyofasini ham namoyon etadi. Zero, mutafakkir talqinida chin oshiq ilm va ma’rifat, tavozu’, fanovashlik, xushxulqlik, hilm, Haq jamolini mavjudotda mushohada qila olish kabi axloqiy fazilatlar bilan kamol topadi.

A.Abdug‘afurov “Xamsat ul-mutahayyirin”da Jomiy siymosining barkamol insonlik, ijodkorlik, ustozlik va do‘stlik qirralari yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlar ekan, shunday yozadi: “Butun asar davomida Jomiy asosan to‘rt qiyofada – nozik did-farosat va go‘zal fazilatlar sohibi, muloyim tabiat va yuksak madaniyatli barkamol Inson, ulkan ilmiy-adabiy meros yaratgan buyuk mutafakkir Ijodkor, g‘amxo‘r rahnamo, donishmand Ustoz va samimiy mehribon, chin sirdosh Do‘st sifatida gavdalanadi” [9, 236]. Olimning mazkur kuzatishlari Jomiy siymosini har jihatdan anglashda ahamiyatlidir. Biroq asarda Jomiyning boshqa muhim sifatlari ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Jomiy Navoiy uchun mahbub va murod maqomidagi zot hamda haqiqat jamolini majoz vositasida mushohada qiladigan oshiq, yetuk orif edi: “Muncha ishning zimnida ishqi zohir tariqikim, “Al-majozu qantarat ul-haqiqat” iborat andin bo‘lg‘ay – alarg‘a andoq mustavli erdikim, har muloyim mazharining husnu malohatikim, haq jamoliyati tajallisi bila zuhur qilmish bo‘lg‘ay yo javru bedodi ofatikim, jaloliyat sifati bila jilva ko‘rguzmish bo‘lg‘ay, ul sifotidin zoti ayniyat mushohada qilib, sababni mutlaqo oradin murtafe’ ko‘rub, ko‘zlarig‘a musabbibdin o‘zga nima kelmagan jihatidin betoqat bo‘lib... ishq shiddatidin va shavq suubatidin yuzlansa erdi, jon so‘z she’rlar va dilfuro‘z g‘azallar ishtig‘oli bila ul tahammulsizliqqa itmiynon berurlar erdi” [2, 739]. Navoiy Jomiy tabiatidagi “mashrabi tavhid”, shaxsiyatidagi ilm-u irfon, tariqat odobini tutishdagi kamoli va shoirlikdagi mahoratini alohida ta’kidlab, bu fazilatlar zamirida darveshlik holi va fano maqomiga yetgan oshiqni ko‘radi.

“Xamsat ul-mutahayyirin”da yetuk pirning iltifoti, suhbati va ruhiy ta’sirini hayotining buyuk ma’naviy tuhfasi deb bilgan muhib-murid hamda Haq ishqida majozdan haqiqat sari yuzlangan oshiq-orif qiyofasi mujassam.

Navoiy hayotida muhim o‘rin tutgan murabbiy, yaqin suhbatdosh va maslakdoshlardan biri Sayyid Hasan Ardasher edi. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da Navoiy bu muborak zotning sarf-u nahv, lug‘at va arabiyat, mantiq, kalom, fiqh, hadis, tafsir, she’r, muammo, tarix, nujum hamda musiqa kabi zohir va botin ilmlarida kamolga yetganini ta’kidlar ekan, dunyo havasi va da’volaridan forig‘ fitrati, darveshvash ko‘ngil egasiga xos surat va siyrat uyg‘unligini betakror chizgilarda ochib beradi: “chun alarg‘a faqri zotiy va fanoyi jibilliy mavjud erdi” [5, 12]. Navoiy Sayyid Hasan Ardasherda “saxoyi zotiy”, “shafqati mufrit”, “lutfu tavozu’, adab va yumshoq so‘z”, “tahammul va burd-u borlik” (sabr-u bardosh, kengfe’llik), “ko‘ngulning yumshoqlig‘i”, “zotiy betakallufluq” (hashamdan xolilik) kabi fazilatlarning mujassam ekanini qayd etadi: “Bu sifatlarda Haq subhonahu va taolo alarni komil xalq qilib erdi...” [5, 10].

Navoiy bu ulug‘ zotni “Majolis un-nafois”da shoir, “Nasoyim ul-muhabbat”da zakiy va valiy avliyolar qatorida tilga olgan. Asardagi qaydlardan Sayyid Hasan Ardasherning Xuroson ashroflarida yashagani, umrining muayyan davrida sipohlik bilan shug‘ullanib, sultonlar iltifotiga sazovor bo‘lgani anglashiladi. Navoiy “To oqibat bu jonibi ul jonibg‘a g‘olib keldi” [5, 456] deya botini darveshlikka moyil bo‘lgani bois olam ishlaridan qo‘l tortib, faqr va suluk yo‘liga kirib, baland maqomlarga yetganini ta’kidlaydi: “...faqr-u fano sulukida kulliy manozillar qa’t qildilar va ulug‘ matabalar va biyik maqomlarg‘a qadam qo‘ydilar... Bu haqir faqir tariqida va fano joddasida alardek tamom kishi oz ko‘rubmen” [5, 13].

Shoir “Favoyid ul-kibar” devonida ham uni “foniyi mutlaq”, “soliki aftoda”, “ma’ni aro piri irshod”, deya yuksak hurmat bilan ulug‘lagan. Quyidagi misralarda Sayyid Hasan Ardasher Navoiyga zohiran ota va ustoz, botinan esa ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi pir maqomida bo‘lganini anglash mumkin:

Foniyi mutlaq, ozoda ham ul,
Garmro‘, soliki aftoda ham ul.
Yo‘q fano dayrida o‘zdin xabare,
Qolmayin o‘zlukidin ham asare.
Manga zohirda atovu ustod,
Lek ma’ni aro piri irshod.
Men aning bandalig‘ig‘a xursand,
Ul debon lek rafiq-u farzand [1, 709].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, oshiqdagi rindlik kayfiyatining ayrim ma’naviy-axloqiy belgilari shoir lirikasidagina emas, nasriy asarlarida ham badiiy talqin etilgan. Xususan, Navoiy “Mahbub ul-qulub”ning “Xarobot ahli zikrida” faslini rind-i xarobatiylar tavsifiga bag‘ishlab, surat va siyratlaridagi ziddiyatli tabiatni ochib beradi Dastlab mayxona ahlining zohiriy sifatlari qalamga olinib, mayga mubtaloligi, bexonumonligi, nomus dastorini mayfurush oyog‘iga tashlashi, rasvolik ko‘yida boshyalang, oyoqyalang yurishi, hatto majlislarda eng quyi o‘rinni egallashi tasvirlanadi: “Mayxona taraddudidin bexonumonlig‘i, paymona taalluqidin besar-u somonlig‘i”. Biroq Navoiy kutilmaganda “nafsi garchi tufroqqa hamdast,

himmati olida falak past”, deya rindning zohiri xor-u zabun ko‘rinsada, falakdan yuksak himmati, dunyo manfaati va tashvishlaridan forig‘ shaxsiyati, borlik va yo‘qlikka birdek munosabati, fanovashligi va Haq rahmatidan umidvorligini ulug‘laydi. Rindning tashqi holati bilan ruhiyatini qiyoslab: yoqa – chok, ko‘ngil – ishq tig‘idin zaxmnok, deya ta’kidlaydi [4, 481]. Mazkur poetik birliklar oshiq obraziga xos tasvirlarni yodga soladi.

“Mahbub ul-qulub”da umumlashma tarzda ifodalangan xarobat ahliga xos ayrim xususiyatlar muayyan tarixiy shaxslar siyratida mujassam bo‘lgan. Navoiy Sayyid Hasan Ardasher shaxsida ham rindlik va oshiqlikka xos sifatlar namoyon bo‘lganini tasvirlar ekan, uning bazm va suhbatlarga moyilligi bilan birga rindlar davrasidagi saxovati, muruvvati, shafqati va betakallufligini ham alohida e’tirof etadi. Ayniqsa, rindlarga ko‘rsatgan muruvvatini “valoyat ahli ishi” darajasida baholab, “ogoh rind”, “shohi rind” deya ulug‘lashi diqqatga sazovordir: “Bu ish erur valoyat ahli ishi, Qila olmas bu ishni o‘zga kishi”. Mazkur ta’riflar Sayyid Hasan Ardasherning murakkab hayotiy qiyofasi, rindlar orasidagi ma’naviy mavqeyi, oshiqona tabiati va axloqiy fazilatlarini ochishga xizmat qiladi.

Navoiy Sayyid Hasan Ardasherga bo‘lgan samimiy ehtiromi, shaxsiyati va ma’naviy olamiga chuqur bog‘langanligini ta’kidlab, uning hayot tarzi, xoksor va kamtar tabiati o‘ziga kuchli ta’sir ko‘rsatganini e’tirof etadi: “alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig‘a yetmasam erdi, sabru toqatim qolmas erdi” [5, 8]. Sayyid Hasanga berilgan bunday yuksak baho Navoiyning unga muhibligi, ustozga bo‘lgan kuchli ma’naviy muhabbatini ham namoyon etadi.

“Holoti Pahlavon Muhammad”da Pahlavon Muhammad siymosi javonmardlik, futuvvat, suhbat, sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. Navoiy Pahlavon Muhammadning nafaqat jismoniy, balki botiniy quvvatini alohida ta’riflab, “tariq fanosida mufarrad”, “fano tariqida mujarrad”, “surat va ma’nida beshabih va benazir”, millat va din quyoshi, nafs va dunyo da’volaridan xoli shaxs sifatida ta’riflaydi. Undagi zohiriy fazl-u kamol hamda botiniy vajd-u hol uyg‘unligini alohida ta’kidlar ekan, “siyrat va suratining dilkashlig‘i”ni so‘z bilan to‘la ifodalash mushkul ekanini shunday ifodalaydi: “Subhonalloh, yuz ming hamdu sipos va sanoyi behadu qiyos ul qodir sun’ig‘akim, har bandasig‘akim, bir ovuch tufroqdin xalq qilibdur, muncha qabuliyat va qobiliyat va axloqi hamida va atvori pisandida va zohir yuzidin muncha fazlu kamol va ma’ni tarafidin muncha vajdi hol bera olurkim, bir jahon xalqin muloyamat bila sayd va bir olam ahlin zanjiri irodati bila giriftori beqayd qilg‘ay. Alqissa, Pahlavonning borcha nav’ ishlarining xushlug‘i bayonida va har tavr siyrat va suratining dilkashlig‘ining sharhida zabonvarlar tili qosir va dostongustarlar nutqi ojizdur” [6, 24]. Pahlavon Muhammadning qirq yilga yaqin Navoiy bilan “musohibi joniy, mahrami rozi nihoniy” bo‘lgani, oralaridagi muhabbat rishtasi kundin-kunga mahkamroq bo‘lib borgani haqidagi qaydlardan ularning do‘stlik va ruhiy yaqinligi qay darajada bo‘lganini anglash mumkin.

Muhokama

Ta’kidlash kerakki, Navoiy asarlarida tasvirlangan oshiq obrazi badiiy tafakkur va xayoliy tasavvur mahsuli bo‘lmay, mutafakkir shoirning bevosita o‘zi ko‘rgan, suhbatida bo‘lgan va ma’naviy ta’sirini his qilgan real tarixiy shaxslar va zamondoshlari siymosida hayotiy ifodasini topgan. “Holot”larda oshiqlik kamoliga xizmat qiluvchi xislatlarni badiiy jihatdan mujassamlashtirgan. Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadning fe’l-atvoridagi ezgulik, poklik, mehr-shafqat va hamida axloq, siyratidagi oshiqqa xos ilm-u hikmat, ishq-u ma’rifat, faqr-u fano, darveshlik, futuvvat, himmat, sidq-u sadoqat, niyoz, nafsni tizginlash kabi xislatlarda Navoiy tasavvuridagi komil oshiqning ma’naviy-axloqiy qiyofasi turli qirralarda o‘z aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodida ishq mavzusi va oshiq obrazi mushtarak g‘oyaviy asosga ega bo‘lsa-da, ularning badiiy talqini adabiy tur va janr tabiati, muallifning ijodiy niyati hamda bayon usuliga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Ishq mavzusining g‘oyaviy-badiiy mohiyatini teran anglash, muallif maqsadini har tomonlama ochib berish va asosli ilmiy xulosalarga kelish uchun mutafakkirning lirik, epik hamda nasriy asarlarini o‘zaro uzviy bog‘liqlikda, tizimli tadqiq etish zarur.

Xulosa

Komil oshiqqa xos fazilatlarning tarixiy shaxslar siymosida gavdalantirilishi Navoiy ijodidagi oshiq obrazining nafaqat badiiy tafakkur va tasavvur, balki hayotiy kuzatishlar hamda shaxsiy tajriba asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Abdurahmon Jomiy timsolida ilm-u irfon, darveshlik va fano martabasiga erishgan oshiq-orif; Sayyid Hasan Ardasher shaxsida rindlikni yuksak himmat, saxovat, muruvvat va betakalluflik bilan uyg‘unlashtirgan darveshvash oshiq-rind; Pahlavon Muhammad siymosida esa futuvvat, javonmardlik, sidq-u sadoqat hamda zohiriy fazl-u kamol bilan botiniy vajd-u holni mujassam etgan oshiq-javonmard qiyofasi namoyon bo‘ladi. Navoiy komil oshiq haqidagi badiiy-irfoniy qarashlarini zamondoshlarining hayot tarzi, amaliy faoliyati va ma’naviy fazilatlari orqali hayotiy dalillar bilan boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Ҳамсат ул-мутаҳаййирин // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 5-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
3. Алишер Навоий. Тарихи мулки ажам // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 8-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011
4. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
5. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
6. Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳловон Муҳаммад // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
7. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
8. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн // Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом НННМИУ, 2011.
9. А.Абдуғофуров. Маърифат денгизининг дури. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди. 30 ж-лик, 2-жилд. – Т.: Tamaddun, 2022.
10. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Тошкент, 2002.
11. Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари (Ўзига хослик ва анъанавийлик асосида). Филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 2008.
12. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965.
13. Очилов Э. Жомий - Навоий идеалидаги комил инсон. // Жомий ва ўзбек адабиёти. Тўплам. - Тошкент: Моваройуннаҳр, 2005.
14. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Тошкент: Xalq merosi, 2004.
15. Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2022.
16. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019.